

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427

journal.namdu.uz



85	Bo'lajak ekologlarda eko-forsayt kompetentlikni rivojlantirishning zaruriyati va ahamiyati Shomurotov B.H.....	836
86	Ergonomik yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi Abdullayev S.X.....	842
87	Obrazli tahlil – kreativ va strategik fikrlash omili sifatida Kambarova S.I.....	846
88	Dual ta'lim tizimida psixologik-pedagogik muammolarni hal qilish yo'llari Yusupova A.P.....	851
89	Malakali mutaxassis sifatli ta'lim vositasi sifatida Imanov B.B.....	855
90	Oliy ta'limda talabalarda ekologik xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishning fanlararo integratsiyasi Davlatova S.T.....	859
91	Kasb-hunar maktabi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning uslubiy shakllari Agaliyeva X.N.....	864
92	O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish. Haydarova M.I.....	869
93	Milliy o'zlikni anglashda milliy urf odatlar va an'analarning bolalarni tarbiyalashdagi ahamiyati. Haydarova M.I., Yigitaliyeva Z.N.....	873
94	Effectiveness of using activities for developing writing skills at uzbek schools. Makhkamova K., Anorova F.A.....	879
95	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zini o'zi qadrlashni rivojlantirishda o'qituvchining o'rni Isaxanova M.E.....	886
96	Ijtimoiy tartib taraqqiyot omili Aminov Sh.N.....	891
97	Futbolchilarni tayyorlashda taktik va jismoniy tayyorgarlik Dadaboyev R.R.	895
98	Yuqori malakali belbog'li kurashchilarni musobaqoldi texnik-taktik ko'rsatkichlarini baxolash metodikasi To'ychiev T.S.	900
99	Ekologik barqarorlikni ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir Anvarova Z.M.	907

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASH BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALASIDIR

Anvarova Zebo Mussoyevna
O'qituvchi,
Ekologiya va geografiya kafedrası,
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yosh avlodning ekologik-huquqiy talim- tarbiyasi ekologik madaniyati va manaviyatini zamon talablari asosida takomillashtirib borib ekologik xavfsizlikning hal qiluvchi omillari sanaladi. Bu holat insoniyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlik va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishi hamda iqtisodiy falsafiy texnik pedagogik va huquqiy yo'nalishlarni tizimli ravishda o'zlashtirishni ham taqazo etib mamlakatimizda bu borada olib borayotgan ishlar xalqaro andozalarga mos xarakterlanadi.

Kalit so'zlar. Barqaror, kimyo, sanoat, me'yoriy-huquqiy, assambleya, yevropa, iqtisod, strategiya, vilnyus, ekoharakat, tabiat, xalqaro, konvensiya, millat.

Abstract. In this article, the prevention of ecological crisis and security in the process of globalization is one of the key factors of environmental security, especially in improving the ecological culture and spirituality of the younger generation. This situation requires a good knowledge of the relationship between humanity and nature and its laws, as well as the systematic development of economic, philosophical, technical, pedagogical, and legal directions and the work carried out in our country in this direction is characterized by international standards.

Keywords. Sustainable, chemistry, industry, regulatory, assembly, Europe, economy, strategy, Vilnius, eco-movement, nature, international, convention, nation

Аннотация. В этой статье предотвращение экологического кризиса безопасности в процессе глобализации является одним из ключевых факторов экологической безопасности, особенно в деле повышения экологической культуры и духовности молодого поколения. Эта ситуация требует хорошего знания взаимосвязи между человечеством и природой и ее законами, а также планомерного развития экономических, философских, технических, педагогических и правовых направлений, и работа, проводимая в нашей стране в этом направлении, характеризуется международными стандартами.

Ключевые слова. Устойчивый, химия, промышленность, регулирование, сборка, экономика, стратегия, Вильнюс, эко-движение, природа, международный, конвенция, Европа.

Kirish

Bugungi kunda ekologiya barqarorlikni ta'minlash, atrof muhit tozaligini asrash butun insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Olib borilgan ekologik kuzatuv va tadqiqot natijalariga ko'ra, kimyo sanoatining chiqindilari ammiakning atmosfera havosidagi asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, hozirgi kunda atmosfera va atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqishini kamaytirish, tabiiy suv manbalaridan tartibli va samarali foydalanishni tashkil etish, shu va boshqa yo'llar bilan ekologik tizim izdan chiqishi hamda inson

sog'ligiga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish dolzarb mummolardan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirga kunda ekologik huquqiy ta'limning asosiy vazifasi-atrof –muhit muhofazasi va tabiatdan foydalanish sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazalarni rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik nazoratni amalga oshirish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish, ekologik ta'lim va barqaror rivojlanish va takomillashtirish, aholining ekologik madaniyatni yuksaltirish, ekologik muammolarni hal etishga jamiyatning turli mamlakatlarini targ'ib qilishdan iborat bo'lmog'i lozim. Ekologik huquqiy ta'limni olib borishda xalqaro shartnoma va konvensiya talablarini bajarish ham o'ta muhimdir.

Jumladan mamlakatimizda ko'plab xalqaro konvensiyalar ratifikatsiya qilindi. ayniqsa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh Assambleyasining Barqaror rivojlanish uchun ta'limni amalga oshirish Dekadasi (2005-2014 yil) bo'yicha qaror, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasining Barqaror taraqqiyot ta'lim bo'yicha Strategiyasi (Vilnyus, 2005 yil) ham juja katta ahamiyatga egadir.

Asosiy qism. E'tirof etish o'rinliki, 2008 yil 2 avgustda ekoharakatning tashkil etilganligi mamlakatimizda ekologik jamoat birlashmalari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, yurtimizda faoliyat yuritayotgan ekologik jamoat birlashmalari ekoharakat timsolida atrof tabiiy muhit va inson salomatligi muhofazasi bo'yicha barcha sa'y- harakatlarni birlashtirish hamda safarbar etish imkoniyatiga ega bo'lindi va bunda yoshlarimizning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu ma'noda, ekologik huquqiy ta'limning tub ma'nosi- bu tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mutanosiblikni va ularni bir-birlariga bog'lovchi tabiiy hamda ijtimoiy qonunlarni o'rganish, ularni har yerga tatbiq etish yo'li bilan ekologik barqarorlikni saqlashdan iborat bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining yuqoridagi xalqaro konvensiya talablarini bajarishdagi faoliyati jahon andozalariga mosligi bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi paytdagi ekologik huquqiy tarbiyalash muammosining xalqaro miqyosda ijobiy hol etilishida o'ziga xos o'rin kasb etmoqda.

Masalan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1992 yil Rio-da-Janeyro shahrida "Atrof muhit taraqqiyot" mavzusidagi bo'lib o'tgan konferensiyasida jahon jamoatchiligining e'tibori tabiatni asrash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslaridan oqilona foydalanish muammosiga qaratdi. Chunki ayni vaqtda yer yuzida 7,5 milliarddan oshiq aholining 1,2 milliard nafari toza ichimlik suviga muhtoj, 2,3 milliard nafar odam sanitariya holati talab darajasiga javob bermaydigan suvdan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Yana bir muammo, dunyo aholisining har 10 nafaridan 4 nafari toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashamoqda.

Shunday ekan, ekologik huquqiy ta'limning asosiy vazifalari va maqsadi ham inson va tabiat o'rtasidagi muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va yechish, yetarli ekologik huquqiy bilimlarga ega bo'lgan holda o'rnatilgan qonun talablari asosida atrof tabiiy muhit muhofazasini amalga oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'lmog'i lozim. Shu asnodan hozirgi paytda ekologik huquqiy ta'limning quyidagi dolzarb vazifalarini ham ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

- Jamiyat va tabiat rivojlanish qonunlari, ular o'rtasidagi munosablarni insonga chuqur o'rgatish va zamonaviy fikrlay oladigan yetuk bilimli barkamol avlodni yetishtirish va tarbiyalash;

- Insonlar o'zlari yashab turgan muhitda tabiat va uning boyliklarini ko'z qorachig'idek saqlashga xizmat qiladigan hamda kelajak avlodga bus-butun qoldiradigan yoshlarni yetishtirishga, tarbiyalashga o'z hissalarini qo'shishlari va bevosita ma'sul bo'lishlari;

- ijtimoiy –iqtisodiy rejalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini yo'naltirishda turli tabiiy hududlarning ekologik holatini biladigan va kelajakning ekologik sof va barqaror rivojlanish rejasini tushunadigan, bilimli kadrlarni tayyorlash va ularning xalqaro andozalarga mos ish faoliyati tashkil etish;

-jamiyat a'zolari o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, huquqiy ekologik qarashlari va urf odatlarini rivojlantirishda o'zlari yashab turgan hudud ekologik muhitini, ularning inson hayoti va salomatligidagi ahamiyatini, yosh avlodda tabiatga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish hamda atrof –muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi, ekologik qonun talablariga rioya qilishlarini tushuntirib borish;

-hozirgi zamon talablari asosida ekologik huquqiy bilimlar asosida ekologik tahdid xavf, inqiroz va ofatlarning oldini olishga hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berishlarini tushuntirish va o'rgatish ham maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan ekologik muammolarni hal qilishda ekologik huquqiy ta'limning asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish ham muhim ahamiyatga egadir (4)

Bu yo'nalishlarga quyidagilarni:

-atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish borasida maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib, yuqori oliy yurtlarigacha atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni bartaraf etishga oid huquqiy ta'lim beradigan qisqa va kengroq ma'xsus kurslarni tashkil etish;

-ekologik –huquqiy ta'limni barcha joylarda jumladan aholi o'rtasida uzluksiz olib borilishi ta'minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi fuqarolarning ekologik huquqiy –iqtisodiy bilimlarni kengaytirish;

-ekologik muammolarni hal qilish borasida ekologik-huquqiy ta'limni kuchaytirish, uni to'g'ri yo'lga qo'yish va amaliyot bilan chambarchasligini ta'minlash maqsadida tegishli ekologik amaliy tajriba va kuzatishlar olib borish;

-zamon talablari asosida barkamol va zamonaviy ekolog mutaxassislar tayyorlashda hamda ularga ekologik-huquqiy ta'lim berishda barcha fanlardan yangi zamonaviy dastur, ishchi o'quv reja va shular asosidagi "Yangi avlod darsliklari" ni tayyorlab chop etish ham maqsadga muvofiqdir.

- fikrimizcha bunday maqsadlarga erishish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish ijobiy natija beradi, deb o'ylaymiz.

-oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlarining o'quv rejalari va dasturlariga "Ekologiya", "Atrof muhit muhofazasi", "Ekologik huquqiy ta'lim tarbiya". "Ekologiya huquqi", "Tabiiy resuslar huquqi", "Energetika huquqi", "Agrar huquqi", kabi yangi fanlar va boshqa kurslarni kengroq o'rganish;

-ekologik huquqiy ta'lim tarbiyaga oid o'quv reja hamda darsliklarni litsey, kollej va oliy o'quv yurtlariga tayyorlanadigan mutaxassislarni tayyorlash yo'nalishlarning xususiyatlariga qarab tuzish va o'qitish.

Zero, bu borada Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining 2011 yil 19 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim konsepsiyasi to'g'risida" gi qo'shma qarorlari ijrosini ta'sminlashni nazorat qilib borish o'ta muhimdir. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 sentyabrda



“Atrof muhitni muhofaza qilish sahasida faoliyat ko’rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori talab darajasida o’qitish ham o’ta dolzarb bo’lib qolmoqda (3).

Alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda ekologik-huquqiy ta’lim tarbiyani takomillashtirish va xalqaro andozalar asosida o’rganish maqsadida prezidentimizning 2013 yil 28 iyundagi “Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g’risida”gi Qarori huquqshunos kadrlarni xalqaro talablarga mos tayyorlash vazifasini qo’ydi va unga asosan Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavr va magistratura “Transchegaraviy suvlar va atrof-muhit xalqaro huquqi” maxsus fani, “Ekologiya huquqi”, “Tabiiy resurslar huquqi”, “Energetika huquqi”, “Agrar huquqi”, kabi yangi fanlarning o’qitilishi ham katta ahamiyatga ega.

E’tiborli tomoni shundaki, mamlakatimizda uzluksiz ekologik ta’lim Konsepsiyasi va uning bajarilishi bo’yicha dasturlarni amalga oshirish natija bo’yicha BMT, YeIK (Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi) tavsiyalariga muvofiq ekolog- mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Yoshlarimiz amaldagi barcha ekologik qonunlarimizni yaxshi bilishlari, ushbu qonunlar talablariga og’ishmay amal qilishlari lozim. Zero, mazkur talablarni bajarish uchun yoshlarning ekologik-huquqiy ongi va tafakkurni, ekologik –huquqiy ma’naviyati va madaniyatini, ekologik-huquqiy ta’lim-tarbiyasi va ekologik –huquqiy bilimlarini oshirmasdan erishish qiyin (5).

Xulosa. Ko’rinib turibdiki, har bir o’sib ulg’ayayotgan yoshlarimiz mustaqil davlatimizning ekologik siyosati hamda uning mazmunini, huquqiy ekologik muammolar hamda ularni hal qilishning huquqiy iqtisodiy tomonlarini yaxshi bilishlari, chuqur ekologik-huquqiy bilim hamda madaniyatga ega bo’lishlari va jamiyat faoliyatining ekologik-huquqiy sohasida faol qatnashishlari zarur.

Ayni vaqtda yer yuzida 8 milliarddan oshiq aholining 1,4 milliard nafari toza ichimlik suviga muhtoj, 2,5 milliard nafar odam sanitariya holati talab darajasiga javob bermaydigan suvdan foydalanishga majbur bo’lmoqda. Yana bir muammo, dunyo aholisininghar 10 nafaridan 4 nafari toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hydrogeological regime of the bukhara oasis. academia (double blind refereed& peer reviewed NS SHadiyeva, ZM Anvarova Journal 10 (11)
2. Опустынивание-глобальная природная социальноэкономическая проблема З.М. Анварова. Польский научный журнал. Варшава.
3. Ecological tourism in uzbekistan Z.M. Anvarova, I.E.Mirzoyeva Current research journal of philological sciences. 2767-3758 2 (11), 48-52 P.
4. Гидрогеологический режим Бухарского оазиса. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8.
5. The factors that influence begetting desertification process. Z.M.Anvarova, I.D Mirzayeva, N.SH. Shodiyeva. South Asian Journal of Marketing & Management Research 10 (11), 129-132.